

PUBLIKASI
SHARHI
LAB
GARMASI
BO'LIMI

Konteyneri bo'lgan yuridik shaxs (yoki yakka tartibdagi tadbirkor) uchun qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatish

152063 -sonli SHARTNOMA

20 21 yil "5" 01

Toshkent sh.

Byndan buyon "Ijrochi" deb ataluvchi 20 21 yil "6" 01 dagi 12-25/24 -sonli ishonchnoma asosida harakatlanayotgan "Shayxontohur – Maxsustrans" avtotransport filiali direktori Shayxontohur timsolidagi "Maxsustrans – ishlab chiqaruvchi boshqarmasi" davlat unitar korxonasi bir tarafdin va bundan buyon «Iste'molchi» deb ataluvchi ustav yoki nizom (yoxud 20 ___ yil " " ___ dagi ___ -sonli ishonchnoma) asosida

(agar birinchi rahbar bo'lmasa, ishonchnom orqali)

timsolidagi

Shayxontohur (lavozim nomi va FISH)

(Истеъмолчинг номи)

boshqa tarafdab, birgalikda esa bundan

buyon «Taraflar» deb ataluvchilar, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Shartnoma mavzusi

1.1. Ushbu Shartnomaga binoan Ijrochi bilan Iste'molchi qattiq maishiy chiqindi(QMCH)larni olib chiqib ketish xizmatlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqa o'rnatiladi.

Iste'molchi topshiradi, Ijrochi esa o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan tariflar bo'yicha haq evaziga Iste'molchi joylashgan hudud 10

2 manzildan bir oyda 1 marotaba 2 dona (770 l., 1100 l., 20 m³) chiqindi to'plash (saqlash) QMCHlarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, Iste'molchi esa bu xizmatlar uchun oldindan haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. QMCHni umumiy to'planishi bir oyga 0,54 m³, bir yilga 6676 m³.

2. Ko'rsatiladigan xizmatlar uchun hisob-kitob qilish

2.1. Iste'molchi QMCHlarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun har oylik to'lovlarni amaldagi tariflar bo'yicha bevosita Ijrochining bank hisob raqamiga ushbu Shartnomaning 2.5-bandida belgilangan miqdorda oldindan amalga oshirishlari shart.

Ushbu Shartnoma tuzish paytidagi amaldagi tariflar bo'yicha xizmat qiymati QMCHlar hajmining har bir m³ uchun 55000 so'mni, QQS bilan 62000 so'mni tashkil etadi.

2.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha bir oylik belgilangan to'lov umumiy summasi ___ so'mni, bir yillik umumiy summasi esa 4132347 so'mni tashkil etadi. Xizmatlar uchun tariflar miqdori o'zgarganda ushbu Shartnomaga qo'shimcha kelishuv rasmiylashtirilmagan holda xizmatlar uchun to'lovlar o'zgarilgan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

2.3. Ijrochi QMCHlarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlarning tartibi va amaldagi tariflari, shuningdek tariflarning o'zgarganligi to'g'risida ushbu tariflar kuchga kirishidan avval qonun hujjatlarida belgilangan mudatda o'zining veb-sahifasida, stendida, e'lonlar taxtasida e'lonlar joylashtirish/osish yo'li bilan, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali Iste'molchini xabardor qiladi.

2.4. QMCHlarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovni hisoblash tegishli davrlarda amalda bo'lgan xizmatlar uchun tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

2.5. Iste'molchi tomonidan QMCHlarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun hisob-kitob oyi boshlanishdan kamida 5 kun oldin Ijrochining bank hisob raqamiga ushbu Shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan oylik hajmi qiymatining 100 foizi oldindan to'lov (avans) asosida amalga oshiriladi.

2.6. Iste'molchiga xizmatlar oldindan to'lovsiz ko'rsatilmaydi.

2.7. QMCHlarni olib chiqib ketish bo'yicha tegishli bo'lmagan sifatidagi yoki belgilangan muddatlardan ortiq uzilishlar bilan xizmatlar ko'rsatilganda, ushbu davrda xizmatlar uchun to'lovlar kamaytiriladi.

3. Ijrochining huquq va majburiyatlari

3.1. Ijrochi quyidagi huquqlarga ega:

QMCHlarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun qonun hujjatlariga va ushbu Shartnomaga muvofiq to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda olish;

Iste'molchiga qarzdorlik to'g'risida talabnoma (ogohlantirish xati) yuborish;

QMCHlarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni undirish bo'yicha sudga da'volar taqdim qilish, shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartibda neustoyka undirish.

3.2. Ijrochi quyidagilarga majbur:

Iste'molchilarning murojaatiga asosan QMCHlarni to'plash uchun konteynerlarning zarur miqdorda bo'lishini ta'minlash;

QMCHlarni olib chiqib ketishning minimal hajmi 3,6 m³ kam bo'lmagan hajmda bir oy uchun, yiligiga esa 43,2 m³ tashkil etishi bo'yicha rioya etish;

Iste'molchiga QMCHlarni olib chiqib ketish bo'yicha qonun hujjatlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga (shu jumladan 0297-11-sonli sanitariya qoidalari va normalari) va ushbu Shartnoma talablariga muvofiq zarur sifatdagi xizmatlar ko'rsatish;

QMCHlarni olib chiqib ketish jadvaliga rioya qilinmagan holatlarda Iste'molchining o'zining dispetcherlik xizmatiga tushgan buyurtmanomalarni operativ tartibda (bir ish kunidan kechikmay) bajarish;

QMCHlarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlarning amalga oshiriladigan rejimi va sifati bo'yicha Iste'molchining murojatlari (arizalari, takliflari, shikoyatlari) va so'rovnomalari, shuningdek ularning ijrosi hisobini olib borish;

Iste'molchiga uning so'roviga asosan maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning amaldagi tartibi, talablari, qoidalari va xizmatlar ko'rsatish tartibining, tariflarning o'zgarishligi, xizmatlar uchun to'lovlar hisob-kitobning holati, to'lovlar bo'yicha qarzdorliklarning mavjudligi yoki yo'qligi to'g'risida bepul ma'lum qilish;

Iste'molchiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va yangi kamchiliklarning oldini olish choralari ko'rish;

fuqarolarning hayoti va salomatligi, atrof muhit uchun xavfli bo'lgan bakteriyalarning va boshqa zararli moddalarning rivojlanishiga, chiqindilarning ko'plab to'planib qolishiga qarshi rejali ishlarni olib borish.

3.3. Ijrochi qonun hujjatlariga va ushbu Shartnomaga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlariga ham ega bo'lishi mumkin.

4. Iste'molchining huquq va majburiyatlari

4.1. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

o'n ikki oydan ortiq bo'lmagan davr uchun oldindan haq to'lash, keyinchalik tegishli tariflar oshganda qaytadan hisob-kitob qilmaslik;

ushbu Shartnomaga muvofiq zarur ko'lamda, belgilangan sifatda, o'zining (agar u yakka tartibdagi tadbirkor bo'lsa) va boshqa jismoniy shaxslarning hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lgan, mulkiga zarar yetkazmaydigan xizmatlardan foydalanish;

Ijrochidan xizmat ko'rsatishning amaldagi tartibi, talablari, qoidalari va o'zgarishlar to'g'risidagi, shuningdek, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar tariflari to'g'risida ma'lumot olish, real vaqt rejimida shaxsiy hisob varaqlarining holatini kuzatib borish;

Ijrochi tomonidan QMCHlarni olib chiqib ketish jadvaliga rioya qilmagan holatlarda Ijrochining operativ tartibda (masalan, _____ telefon raqami orqali) QMCHlarni olib chiqib ketish choralari ko'rishini lozim bo'lgan dispetcherlik xizmatiga buyurtmanoma berish;

Ijrochi tomonidan ushbu Shartnoma majburiyatlari sifatsiz bajarilgan holatlarda Ijrochiga yozma, elektron yoki og'zaki shaklda shikoyat qilish va Ijrochidan xizmatlar to'liq ko'rsatilmaganligi yoki tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganligi holatini tasdiqlovchi dalolatnomani tuzishni, shuningdek, aniqlangan kamchiliklarning belgilangan muddatlarda bepul bartaraf etilishini va ushbu Shartnomada kelishilgan miqdordalarda neustoyka to'lanishini talab qilish;

o'zining faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatganligining hujjatlar bilan tasdiqlangan davr yoki shartnomada belgilangan tartibda xizmatlar ko'rsatilmagan davr uchun xizmatlarga haq to'lash majburiyatlaridan to'liq ozod bo'lish;

Ijrochi tomonidan sifatsiz xizmat ko'rsatilganligi sababli, agar Ijrochi o'z vaqtida ushbu Shartnomani bajarishga kirishmasa yoki sifatsiz xizmat ko'rsatsa, zararlar undirilishini talab etib sudga murojat qilish.

4.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

Ijrochi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq miqdorda to'lash;
QMCHlarni ularni joylashtirishda belgilangan chiqindi uskunalari tashlash;
har qanday chiqindilarni ruxsat etilmagan joylarga va ob'ektlarga (ko'chalarga, suv yo'llariga, ariq va qattiq hamda suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va ko'mish uchun belgilanmagan boshqa joylarga) tashlamaslik hamda joylashtirmaslik;

QMCHlarni har qanday joylarda maxsus texnik qurilmalarsiz yoqmaslik;

QMCHlarni maxsus avtotransport vositasiga ortish uchun Ijrochiga ortish joyiga bemaolol o'tishini ta'minlash;

chiqindi to'plash uskunalarining nosozliklari aniqlanganda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotni darhol xabardor qilish;

yirik gabaritli maishiy chiqindilar va qurilish chiqindilarini xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari, fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan belgilangan, vaqtinchalik maxsus ajratilgan joylarga joylashtirish va ularning chiqindi to'plash shaxobchalaridagi konteynerlarga tashlanishiga yo'l qo'ymaslik;

suyuq, yirik gabaritli maishiy chiqindilar, chorvachilik, qurilish chiqindilari va tuproq, daraxt va butalarni kesish hamda agrotexnik ishlov berishdan hosil bo'ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabballari, kesish ishlari qoldiqlari, burglar va boshqalar) va smyo'tlarni olib chiqib ketish bo'yicha qo'shimcha ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish uchun Ijrochi yoki boshqa xizmat ko'rsatuvchi tashkilot bilan kelishilgan narxlarda to'lov evaziga alohida shartnoma tuzish;

ko'rsatilgan xizmatlarni Ijrochining hujjatlarida o'zining (yoki o'z vakilining) imzosi va muhri (muhir mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlab borish;

Ijrochi bilan birgalikda hisob-kitob davri tamom bo'lgandan keyin har oy 5 kun mobaynida foydalanilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblarning taqqoslash (solishtirma) dalolatnomasini tuzish.

4.3. Iste'molchi qonun hujjatlariga va ushbu Shartnomaga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5. Taraflarning javobgarligi

5.1. Taraflardan biri ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu Taraf boshqa Tarafga etkazilgan zararni to'laydi va (yoki) qonun hujjatlarda hamda ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha tarzda javobgar bo'ladi.

5.2. Ko'rsatilishi lozim bo'lgan yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Iste'molchi Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foiz miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50,0 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida peniya to'laydi.

5.3. Xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, Ijrochi Iste'molchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50,0 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.4. Taraflar o'rtasidagi har qanday nizolar (bahslar), agarda o'zaro bitimga kelinmasa, ularning (ulardan birining) da'vo arizasi asosida Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining muhokamasiga taqdim etilishi mumkin.

6. Shartnoma muddati

6.1. Ushbu Shartnoma tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va Taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi. Byudjet tashkiloti bo'lgan Iste'molchi uchun ushbu Shartnoma tegishli g'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.2. Ushbu Shartnoma amal qilish muddati 2024 yil "5" 01 dan 2023 yil "31" gacha belgilanadi. Muddat tugagach, agar Tarafdin biri muddat tugashidan bir oy oldin ushbu Shartnomaning amal qilinishini tugatish haqidagi o'zining niyatini yozma ravishda bildirmasa, u keying yil uchun uzaytirilgan hisoblanadi.

6.3. Ushbu Shartnomaning amal qilinishi quyidagi hollarda tugatiladi:

Ijrochi va Toshkent shahri hokimligi o'rtasida tuzilgan Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatishga shartnoma bekor bo'lganda yoki uning amal qilish muddati tugatilganda (agar u uzaytirilmasa);

Iste'molchi Ijrochining xizmat ko'rsatish hududiga kirmaydigan hududdagi manzilga ko'chib ketganida;

Iste'molchi ushbu Shartnoma tuzish paytida joylashgan manzili Ijrochining xizmat ko'rsatish hududidan chiqqan holda;

Ijrochining tugatilishi;

Iste'molchi tariqasida bo'lmish yuridik shaxsning tugatilganda yoki yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati tugatilganda;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xollarda.

7. Boshqa ayrim shartlar

7.1. Ijrochi Iste'molchining, agar u yuridik shaxs bo'lsa – Iste'molchi xodimlarining va (yoki) boshqa jismoniy shaxslarning xayoti, salomatligi va Iste'molchining mulkiga zarar yetkazilganligi fakti aniqlangan hollarda, ushbu holatni tasdiqlovchi dalolatnoma tuziladi.

7.2. Ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish Taraflar o'rtasida tegishli kelishuv tuzilishi bilan amalga oshiriladi.

7.3. Pochta (yuridik) manzili, bank rekvizitlari, firma nomlari o'zgargan taqdirda, Taraflarni 10 kun oldin yozma ravishda ogohlantirish kerak.

7.4. Ushbu Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, Taraflarning har biriga bir nusxadan qoldiriladi.

8. Taraflarning pochta manzillari, to'lov va boshqa rekvizitlari

Ijrochi

“Shayxontohur - Maxsustrans” ATF

Manzil: 100042 Toshkent sh, Shayxontohur tumani

Bexzod tor 4, Fayziyeva ko'chasi.

Tel.: (71) 243-12-84, 243-12-19

STIR: 200 903 001

Bank rekvizitlari: “Ipoteka bank”

ATIB Shayxontohur filialida

2021 0000 5001 1894 8004 x/r

MFO: 00425


(FISH va imzo)


Iste'molchi


Manzil: _____

Tel.: _____

STIR _____, OKED _____

Bank rekvizitlari: _____




(FISH va imzo)

Izoh. – Davlat byudjetidan mablag' oluvchi bilan tuzilgan shartnomada uning G'aznachilik bo'linmasida ochilgan shaxsiy hisob varag'i va u bilan bog'liq boshqa zarur rekvizitlar ko'rsatiladi.

